# Jismoniy shaxslarning garov.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha tushuntirishlar.

1. Garov.uz sayti bosh sahifasining o‘ng taraf yuqori burchagida rasmli tugmani bosish kerak. So‘ngra ***“Ro‘yxatdan o‘tish”*** tugmasini bosish zarur.




2. ***“Shaxsiy kabinet ochish uchun ariza”*** sahifasi ochilib, ushbu sahifada subyekt turi ruknidan ***“Jismoniy shaxs”*** turi tanlanadi.

3. Sahifa quyisida paydo bo‘lgan so‘rovnoma 11 xil shaxsiy ma’lumot bilan to‘ldiriladi.




4. Ommaviy offerta bilan tanishib, tasdiqlash (v) belgisi qo‘yiladi.

5. Mazkur sahifa oxirida ko‘rsatilgan kodni belgilangan satrda to‘g‘ri tergan holda kiritiladi va ***“Registratsiya”*** tugmasi bosiladi.

6. Barcha ma’lumotlar to‘g‘ri va to‘liq kiritilgan taqdirda, keyingi sahifada avtomatik ravishda ***“Ma’lumotlaringiz muvaffaqiyatli saqlandi! Parol yaratish va hisobingizni faollashtirish uchun elektron pochtangizga yuborilgan faollashtirish havolasiga o‘tishingiz kerak!”*** ko‘rsatmasi paydo bo‘ladi.




***Ma'lumotlaringiz muvaffaqiyatli saqlandi! Parol yaratish va hisobingizni faollashtirish uchun elektron pochtangizga yuborilgan faollashtirish havolasiga o'tishingiz kerak!***

Bunda, yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlaringizdagi elektron pochtani tekshirib, **info@garov.uz** elektron manzilidan kelgan xatni topishingiz zarur *(eslatma: ayrim hollarda bu xat* ***SPAM/*** *Нежелательная почта /* ***Trash*** *pakasiga tushib qolishi mumkin)* va Sizdan xatdagi havola ustiga bosib faollashtirish talab etiladi.

**7.** Natijada, "***Ro'yxatdan o'tishni yakunlash uchun Siz quyidagi shaklni to'ldirshingiz kerak***" sahifasi ochilib, Sizdan takroran JSHSHIR, tug'ilgan sana, login kiritishingiz va parol tanlashingiz so'raladi. Tegishli ma'lumotlar kiritilib "***Saqlash***" tugmasi bosiladi.




**8.** Yakunda yangi veb-sahifada "***Ro'yxatdan o'tish muvaffaqiyatli yakunlandi, shaxsiy kabinetga kirish orqali tizimdan foydalanishingiz mumkin.***" yozuvi paydo bo'ladi.




***Ro'yxatdan o'tish muvaffaqiyatli yakunlandi, shaxsiy kabinetga kirish orqali tizimdan foydalanishingiz mumkin***

Bunda, Siz garov.uz sayti bosh sahifasi o'ng taraf yuqori burchagida rasmli tugmasini bosib, 7-bosqichda tanlangan login va parolni tergan holda **shaxsiy kabinetga kirishingiz mumkin bo'ladi**.

# Жисмоний шахсларнинг garov.uz сайтида рўйхатдан ўтиш бўйича тушунтиришлар.

1. Garov.uz сайти бош саҳифасининг ўнг тараф юқори бурчагида расмли тугмани босиш керак. Сўнгра “***Рўйхатдан ўтиш***” тугмасини босиш зарур.




2. “***Шахсий кабинет очиш учун ариза***” саҳифаси очилиб, ушбу саҳифада субъект тури рукнидан “***Жисмоний шахс***” тури танланади.

3. Саҳифа қуйисида пайдо бўлган сўровнома 11 хил шахсий маълумот билан тўлдирилади.




4. Оммавий офферта билан танишиб, тасдиқлаш (v) белгиси қўйилади.

5. Мазкур саҳифа охирида кўрсатилган кодни белгиланган сатрда тўғри терган ҳолда киритилади ва “***Регистрация***” тугмаси босилади.

6. Барча маълумотлар тўғри ва тўлиқ киритилган тақдирда, кейинги саҳифада автоматик равишда ***Маълумотларингиз муваффақиятли сақланди! Пароль***

***яратиш ва ҳисобингизни фаоллаштириш учун электрон почтангизга юборилган фаоллаштириш ҳаволасига ўтишингиз керак!***” кўрсатмаси пайдо бўлади.




***Маълумотларингиз муваффақиятли сақланди! Пароль яратиш ва ҳисобингизни фаоллаштириш учун электрон почтангизга юборилган фаоллаштириш ҳаволасига ўтишингиз керак!***

Бунда, юқорида кўрсатилган маълумотларингиздаги электрон почтани текшириб, **info@garov.uz** электрон манзилидан келган хатни топишингиз зарур *(эслатма: айрим ҳолларда бу хат **SPAM**/ Нежелательная почта / **Trash** пакасига тушиб қолиши мумкин)* ва Сиздан хатдаги ҳавола устига босиб фаоллаштириш талаб этилади.

**7.** Натижада, “***Рўйхатдан ўтишни якунлаш учун Сиз қуйидаги шаклни тўлдиришингиз керак***” саҳифаси очилиб, Сиздан такроран ЖШШИР, туғилган сана, логин киритишингиз ва пароль танлашингиз сўралади. Тегишли маълумотлар киритилиб “***Сақлаш***” тугмаси босилади.




**8.** Якунда янги веб-саҳифада “***Рўйхатдан ўтиш муваффақиятли якунланди, шахсий кабинетга кириш орқали тизимдан фойдаланишингиз мумкин.***” ёзуви пайдо бўлади.




***Рўйхатдан ўтиш муваффақиятли якунланди, шахсий кабинетга кириш орқали тизимдан фойдаланишингиз мумкин***

Бунда, Сиз garov.uz сайти бош саҳифаси ўнг тараф юқори бурчагида  расмли тугмасини босиб, 7-босқичда танланган логин ва паролни терган ҳолда **шахсий кабинетга киришингиз мумкин бўлади**.